

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.08/2025.27.12.Qx.03.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

XODIYEVA SITORA SHOXABBOS QIZI

**SOYANI ILDIZDAN VA ILDIZDAN TASHQARI OZIQLANTIRISHNING
O‘SISHI VA RIVOJLANISHI HAMDA DUKKAKLARNING CHATNAB
TO‘KILISHIGA TA‘SIRI**

(Qashqadaryo viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida)

06.01.08 – O‘simlikshunoslik

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2026

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Sontents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
agricultural sciences**

Xodiyeva Sitora Shoxabbos qizi

Soyani ildizdan va ildizdan tashqari oziqlantirishning o‘sishi va rivojlanishi hamda dukkaklarning chatnab to‘kilishiga ta’siri (Qashqadaryo viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida) 3

Xodiyeva Sitora Shoxabbos qizi

Влияние корневой и внекорневой подкормки на рост, развитие и растрескивание бобов сои (В условиях светло-серых почв Кашкадарьинской области)..... 21

Xodiyeva Sitora Shokhabbos qizi

Impact of soil and foliar fertilization on the growth dynamics, development, and pod dehiscence in soybean. (In the conditions of light gray soils of the Kashkadarya Region) 41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.08/2025.27.12.Qx.03.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

XODIYEVA SITORA SHOXBOS QIZI

**SOYANI ILDIZDAN VA ILDIZDAN TASHQARI OZIQLANTIRISHNING
O‘SISHI VA RIVOJLANISHI HAMDA DUKKAKLARNING CHATNAB
TO‘KILISHIGA TA‘SIRI
(Qashqadaryo viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida)**

06.01.08 – O‘simlikshunoslik

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Qx1484 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Qarshi davlat texnika universitetida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb – sahifasida (www.andqxai.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abduazimov Akbar Muxtorovich

qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponenlar:

Xudoyqulov Jonibek Bazarovich

qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori, professor.

Nosirov Iqboljon Qobiljon o'g'li

qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot

Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi PhD.08/2025.27.12.Qx.03.01 raqamli Ilmiy kengashning 20__ yil «__» _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170600, Andijon tumani, Kuyganyor shaharchasi, Oliygo'ha ko'chasi 1 – uy. Tel: (+99874) 224 – 02 – 82; faks: (+99874) 224 – 02 – 62; e – mail: andqxai@exat.uz; Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Ma'muriy binosi, 1 – qavat, anjumanlar zali).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya bilan Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining Axborot – resurs markazida tanishish mumkin (№ _____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (170600, Andijon tumani, Kuyganyor shaharchasi, Oliygo'ha ko'chasi 1 – uy. AQXAI, Axborot-resurs markazi Tel: (+99874) 224 – 02 – 82;).

Dissertatsiya avtoreferati 20__ yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(20__ yil «__» _____ dagi ____ – raqamli reyestr bayonnomasi).

A.Isashov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor

A.N.Jo'rayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., professor

Z.M.Jumaboyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Bugungi kunda dunyo miqyosida soya (*Glycine max*) muhim oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning yildan yilga ortib borishi, qishloq xo'jaligi ekinlari maydonlarining yanada kengaytirish va yuqori sifatli mahsulotlar bilan uzluksiz ta'minlashni taqozo etmoqda. "Dunyo bo'yicha bugungi kunda qariyb 127 mln gektar maydonda soya parvarishlanib, yiliga 353,5 million tonnadan ziyod soya doni olinmoqda (o'rtacha hosildorlik 27,8 s/ga)"¹, jumladan, "Braziliya 37 mln, AQSh 31 mln, Argentina 18 mln, Hindiston 11 mln, Xitoy 9 mln, O'zbekistonda 103 ming gektar maydonda soya ekilib 143 ming tonna soya doni yetishtirilmoqda"². Biroq aholini soya oqsiliga va moyiga bo'lgan talabi ortib borishi natijasida oqsil va moy miqdori yuqori bo'lgan soya navlariga ehtiyoj ortib bormoqda.

Dunyoda "soya ishlab chiqarishning o'sishi ekin maydonlarining ko'payishi va hosildorlikning oshishi hisobiga ta'minlanib, so'nggi yillarda maydonning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 1,7 foizni tashkil qilmoqda. Shundan har gektardan olinadigan soya hosildorligi bir foizga ko'tarilib, o'rtacha hosildorlik gektaridan 27,8 sentnerni tashkil etgan"³. Shu bilan birga turli tuproq sharoitida soya navlarini etishtirish, hosildorligini oshirishda dukkaklar chatnashini kamaytirish hamda don sifatini, jumladan, oqsil miqdori, moylilik darajasini oshirishda agrotexnologiya elementlarini ishlab chiqish va tuproq unumdorligini saqlash hamda oshirish bo'yicha izlanishlarni amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

Respublikamizda so'nggi yillarda sug'oriladigan maydonlarda asosiy-takroriy ekin sifatida soya ekini yetishtirish, don hosildorligi moydorlik darajasi va tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan agrotadbirlarni amaliyotga tadbiiq etishga alohida e'tibor qaratildi. Buning natijasida soya o'simligi yetishtirishda ko'plab mahalliy hamda xorijiy suyuq o'g'itlarini qo'llashning maqbul muddat va me'yorlari ishlab chiqilib, keng maydonlarda joriy etildi. Shunday bo'lsada, soya o'simligining dukkaklarining pishish davrida chatnab to'kilishiga suyuq o'g'itlarning ijobiy ta'siri va ularni qo'llashning maqbul me'yori belgilash borasidagi ilmiy tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" strategiyasida qishloq xo'jaligi sohasida qo'shilgan qiymat hajmini oshirish va resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishish ustuvor yo'nalish etib belgilangan. Xususan, strategiyaning iqtisodiy yo'nalishlarida aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish qayta ishlash resurslarini tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni qo'llash ustuvor vazifalaridan biri etib belgilandi. Shu bois, soya dukkaklarining chatnashiga qarshi suyuq o'g'itlar qo'llash samaradorligini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi

¹ https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/4051060?utm_source

² <https://www.tridge.com/data-analytics>

³ <https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/4051060>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-yanvardagi PQ–4118-son “Yog‘-moy tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora–tadbirlar va sohani boshqarishda bozor mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida” gi qarori, hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 14-iyuldagi 438-son «Respublikada moyli ekinlar yetishtirishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi Soya navlarini asosiy va takroriy ekin sifatida yetishtirish texnologiyalari, o‘g‘itlash va sug‘orish tartiblari, almashlab ekishdagi o‘rni, tuproq unumdorligiga ta’sirni o‘rganish borasida respublikamiz olimlaridan B.Xolikov, D.Yormatova, R.Siddiqov, X.Atabayeva, M.Mannopova, R.Tillayev, F.Namozov, M.Tojiyev, N.Urazmatov, U.Nematov, N.Xalilov, A.Mansurov, N.Mirzayev, O.Sattorov, G.Tangirova, xorijlik olimlardan P.Vavilov, A.Babich, Ugo Toro Korrea, B.Andreaslar tomonidan keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan.

Biroq, Qashqadaryo viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida soya navlarini asosiy ekin sifatida yetishtirishda ildizidan mineral hamda Kalifos, SAKO‘ o‘g‘itlarini bargdan oziqlantirish me‘yorlarining o‘simlik rivojlanishi, hosildorligi dukkaklarini chatnashi va donini to‘kilishiga ta’siri bog‘lab o‘rganish bo‘yicha ilmiy - tadqiqot ishlari yetarli darajada olib borilmagan.

Dissertasiya tadqiqotining ilmiy – tadqiqot muassasasining ilmiy – tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Qarshi davlat texnika universiteti (Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti) ilmiy–tadqiqot ishlari rejasining 2021-yil 27-avgust kengashining №1–son yig‘ilishida muhokama etilib, “Soyaning oqsil miqdori, moylilik darajasi yuqori navlarini asosiy va takroriy ekin sifatida tanlash hamda ularni yetishtirish agrotexnologiyasi elementlarini ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy–tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan (2021–2025 yy.).

Tadqiqotning maqsadi Qashqadaryo viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida soyani turli me‘yorlarda mineral o‘g‘itlarga bog‘liq holda biostumliatorlar qo‘llashning soya dukkaklarining chatnab donining to‘kilishini kamaytiruvchi yuqori hosil yetishtirish agrotexnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

turli mineral o‘g‘it fonida soya ekinlari bargi orqali biostimulyator o‘g‘itlarni me‘yor–muddatlarda qo‘llashning o‘sish–rivojlanishi, dukkaklar shakllanishiga ta’sirini aniqlash;

turli mineral o'g'it fonida soya ekinlari bargi orqali biostimulyator o'g'itlarni me'yor–muddatlarda qo'llashning barg sathi shakllanishi, quruq moddalar to'planishi va fotosintetik sof mahsuldorlikka ta'sirini aniqlash;

turli mineral o'g'it fonida soya ekinlari bargi orqali biostimulyator o'g'itlarni me'yor–muddatlarda qo'llashning dukkaklarining chatnab donni to'kilishiga bog'liqligini ilmiy aniqlash;

turli mineral o'g'it fonida soya ekinlari bargi orqali biostimulyator o'g'itlarni me'yor–muddatlarda qo'llashning don hosildorligigiga ta'sirini aniqlash;

asosiy ekin sifatida ekilgan soya navlarida turli muddat me'yordalarda mineral hamda biostimulyator o'g'itlarni ildiz hamda barg orqali qo'llashning iqtisodiy samaradorligini aniqlash:

Tadqiqotning obyekti sifatida soyaning mahalliy “Toshkent” va “Madad” navlari, och tusli bo'z tuproqlar, mineral o'g'itlar (NPK)ning me'yorlari, suspenziya sifatida karbamid, Kalifos va SAKO' o'g'itlari olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib soya ekinining turli navlarini asosiy ekin sifatida etishtirish, mineral o'g'it me'yorlarining o'simlik o'sishi va rivojlanishi hamda fotosintetik sof mahsuldorligiga ta'siri, dukkaklar sonini ortishi, dukkaklarning chatnashi, 1000 ta don massasi, don hosildorligi darajasi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tuproqning agrokimyoviy tahlillari “Методы агрохимических анализов почв и растений” (Toshkent, 1977) uslubiy qo'llanmasi asosida o'tkazildi. Dala tajribalari va fenologik kuzatuvlar O'simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti (VIR)ning uslubiy qo'llanmalari (Moskva, 1977) hamda “Dala tajribalarini o'tkazish uslublari” (O'zPITI 2007) asosida amalga oshirildi. Olingan natijalarning matematik– statistik tahlili V.A.Dospexovning “Методика полевого опыта” (Москва, 1985) qo'llanmasi bo'yicha bajarildi. Tadqiqot natijalarining iqtisodiy samaradorligi “Методика экономической эффективности использования в сельском хозяйстве результатов научно-исследовательских работ” (Москва, Колос, 1987) uslubiyati asosida aniqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Qashqadaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida soya navlari dukkaklarining chatnab to'kilishini kamaytirish uchun ildizdan va ildizdan tashqari oziqlantirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilgan hamda maqbul oziqlantirish usullari ishlab chiqilgan;

biostimulyatorlarning soya navlari o'sish ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganilganda, eng yuqori natijalar $N_{120}P_{90}K_{60}$ foni qo'llanilgan variantlarda qayd etilib ushbu fonda poya balandligi “Toshkent” va “Madad” navlarida Kalifos qo'llanilganda 86,1–90,3 sm ni, Sakoda suyuq o'g'iti bilan oziqlantirilganda esa 100,1–103,1 sm.ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar o'g'itlanmagan $N_{00}P_{00}K_{00}$ nazorat variantiga nisbatan tegishli ravishda 11–15 sm va 14,0–14,7 sm ga, $N_{60}P_{45}K_{30}$ fonga nisbatan esa 7,3–10,2 sm va 12,0–13,1 sm ga yuqori ekanligi aniqlangan;

o'simliklarda poyaning kuchli rivojlanib, dukkaklar sonining kam shakllanishiga sabab bo'lishi hamda Kalifos va SAKO' o'g'itlari bilan bargdan

oziqlantirilganda “Toshkent” navida 20,9–31,4 dona, “Madad” navida 11,5–38,7 donaga yuqori bo‘lganligi aniqlangan;

eng mahsuldor fotosintetik sof mahsuldorlik soya navlariga mineral o‘g‘it me‘yori $N_{60}P_{45}K_{30}$ hisobida qo‘llanilgan sharoitida SAKO‘ va Kalifos o‘g‘itlari bilan ildizdan tashqari oziqlantirilganda Kalifos 22,6–21,4 g/m² sutka, SAKO‘ 22,6–21,3 g/m² sutka) bo‘lib, barg yuzasi “Toshkent” navida 60506,5–60690,6 m²/ga, “Madad” navida 60160,6–60335,4 m²/ga ni, quruq massa 77,2–88,2 g/o‘simlik shakllanishi aniqlangan;

soyani mineral o‘g‘it me‘yori $N_{120}P_{90}K_{60}$ hisobida qo‘llanilganda o‘g‘itlanmagan variantlarga nisbatan 12,6–14,9 %, ildizdan tashqari oziqlantirilmagan variantlarga nisbatan Kalifos preparati bilan oziqlantirilganda 5,8–6,4 %, SAKO‘ preparati bilan oziqlantirilganda 5,4–6,3 % dukkaklar chatnashi kamayishi aniqlangan;

Qashqadaryo viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida soya navlarini mineral o‘g‘it me‘yori $N_{120}P_{90}K_{60}$ hisobida qo‘llanilib, SAKO‘ va Kalifos o‘g‘itlari bilan ildizdan tashqari oziqlantirilganda hosildorlik eng yuqori 35,8–39,4 s/ga bo‘lib, mineral o‘g‘itlar qo‘llanilmagan (o‘g‘itsiz) fonga nisbatan 9,7–14,0 s/ga, ildizdan tashqari oziqlantirilmagan variantga nisbatan 6,0–10,6 s/ga qo‘shimcha hosil shakllanganligi aniqlangan;

Mineral o‘g‘it me‘yori $N_{60}P_{45}K_{30}$ qo‘llanilgan hamda Kalifos o‘g‘itli suspenziya bilan ishlov berilgan variantda eng yuqori rentabellik darajasi qayd etilib, bu ko‘rsatkich “Toshkent” navida 121,8 % ni, “Madad” navida esa 124,7 % ni tashkil etgan. Shuningdek, SAKO‘ o‘g‘iti bilan suspenziya qilingan variantda ham rentabellik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lib, “Toshkent” navida 105,4 %, “Madad” navida esa 107,1 % bo‘lishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari: Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida soyaning “Toshkent” va “Madad” navlarini oziqlantirish tartiblari maqbullashtirildi. Tadqiqotlar davomida o‘rganilgan soya navlarida fotosintetik sof mahsuldorlik dukkaklash fazasi oxirigacha ortib borishi, pishish fazasi boshlanishi bilan esa kamayishi kuzatildi. Bunda mineral o‘g‘itlar $N_{60}P_{45}K_{30}$ nisbatda qo‘llanilib, SAKO‘ va Kalifos o‘g‘itlari bilan ildizdan tashqari oziqlantirilganda eng yuqori fotosintetik sof mahsuldorlikka erishilishi isbotlandi.

Shu bilan birga mineral o‘g‘itlar me‘yori $N_{60}P_{45}K_{30}$ miqdorida qo‘llanilganda, SAKO‘ va Kalifos o‘g‘itlari ta‘sirida soya navlarida dukkaklarning chatnab to‘kilishi maksimal darajada kamayishi aniqlandi. Mazkur o‘g‘itlar bilan ildizdan tashqari oziqlantirish natijasida soya navlarida yuqori hosil to‘planishi, eng avvalo, dukkaklarning chatnab to‘kilishi sezilarli darajada kamayganligi bilan izohlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining laboratoriya va dala tajribalarida olingan ma‘lumotlarga matematik–statistik ishlov berilganligi, nazariy va amaliy xulosalarning o‘zaro mutanosibliigi hamda natijalarning xorijiy va mahalliy tajribalar bilan qiyosiy tahlil qilinganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, aniqlangan qonuniyatlar va ilmiy asoslangan xulosalarning mutaxassislar tomonidan aprotatsiyadan o‘tkazilganligi, izlanishlar natijalarining ishlab chiqarishga keng joriy etilganligi, respublika va xalqaro ilmiy–amaliy

konferensiyalarda muhokama qilinganligi hamda Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan ilmiy nashrlarda chop etilganligi natijalarning haqqoniyligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, Qashqadaryo viloyatining sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari sharoitida soya navlarini dukkaklarning chatnab donining to'kilishini minimallashtirishga xizmat qiluvchi ildiz orqali va bargidan (suspensiya usulida) oziqlantirishni o'simlikni rivojlanishiga, o'sishi va rivojlanishiga, poya balandligi, barg sathi, quruq massa to'plashi va fotosintez sof mahsuldorligiga, don hosili ko'rsatkichlariga ta'siri ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari sharoitida soya o'simligining Toshkent navida $N_{120}P_{90}K_{60}$ fonida Kalifos qo'llanilgan variantlar Toshkent va Madad navlarida don hosildorligi 39,0-40,0 s/ga ni, SAKO' o'g'iti qo'llanilgan variantlarda mos ravishda 36,7-37,8 s/ga, eng yuqori daromad SAKO' bargidan oziqlantirish qo'llanilgan Toshkent navida 16725,0 ming so'm/ga, Madad navida 17495,0 ming so'm gektaridan sof daromad olishga, rentabellik darajasi 88,7 % ga erishilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qashqadaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida soyani ildizdan tashqari oziqlantirishning o'sishi va rivojlanishi hamda dukkaklarning chatnab to'kilishiga ta'siri (Qashqadaryo viloyati misolida) bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

Qashqadaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida soyani yetishtirish va oziqlantirish bo'yicha tavsiyanoma tasdiqlangan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi 2025-yil 14-iyuldagi 05/05 – 04 – 397-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur tavsiyanoma bugungi kunda fermer xo'jaliklarida soyaning Toshkent va Madad navlaridan yuqori va sifatli don hosili yetishtirishda muhim ko'rsatma bo'lib xizmat qilmoqda;

Soyaning Toshkent va Madad navlarini mineral o'g'it fonlarida bargidan biostimulyatorlarning turli me'yorlarini qo'llab ishlov berish usullari ishlab chiqarish sharoitida Qarshi tumanida 21 gektar, Koson tumanida 17 gektar va Kasbi tumanida (64 gektar), jami 102 gektar yer maydonlarida amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 14-iyuldagi 05/05-04-397-son ma'lumotnomasi). Natijada soya navlari "Toshkent" va "Madad" navlarini mineral o'g'itni $N_{60}P_{45}K_{30}$ me'yorida qo'llash bargidan ishlov berishda 2 bosqichda dukkaklash fazasining boshida–Kalifos 1,5 l/ga, SAKO' 1,5 kg/ga, II bosqich dastlabki dukkaklarning pishish davrida–Kalifos 2,5 l/ga, SAKO' 2,5 kg/ga me'yorida qo'llanilganida yuqori samaradorlikka erishilgan;

Soya navlari "Toshkent" va "Madad" navlarini mineral o'g'itni $N_{60}P_{45}K_{30}$ me'yorida qo'llash bargidan ishlov berishda 2-bosqichda dukkaklash fazasining boshida–Kalifos 1,5 l/ga, SAKO' 1,5 kg/ga, II bosqich dastlabki dukkaklarning pishish davrida–Kalifos 2,5 l/ga, SAKO' 2,5 kg/ga me'yorida qo'llanilgan quyidagi "Xayitov Nuriddin Chorvador", "Tong shamoli ziyosi", "Saidakbar Saidaxror" fermer xo'jaligi er maydonlari har gektardan 7,6–13,7 mln. so'mgacha shartli sof daromad olinishiga rentabellik darajasi 88,7 foizni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dala va laboratoriya tadqiqotlarining borishi hamda olingan natijalar har yili Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining ilmiy bo‘limi hamda “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi” kafedra mutaxassislari tomonidan aprobatsiyadan o‘tkazilib, ijobiy baholangan. Tadqiqotning asosiy xulosalari va ilmiy natijalari bo‘yicha respublika hamda xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma‘ruzalar qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan, asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnalda, 4 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, jumladan, 2 ta xorijiy va 2 ta mahalliy konferensiyada va 1 ta tavsianoma nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Soya navlarini yetishtirish, uning hosildorligi va o‘g‘itlash tartiblari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar yuzasidan ilmiy manbalar sharhi**” deb nomlangan birinchi bobida mavzu doirasida olib borilgan xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar natijalari chuqur tahlil qilingan. Unda soya o‘simligining xalq xo‘jaligidagi ahamiyati, biologik xususiyatlari, navlarning hosildorlik ko‘rsatkichlari hamda yetishtirish agrotexnologiyasining asosiy elementlari ilmiy manbalar asosida yoritilgan.

Shuningdek, soya hosildorligini oshirishda mineral va mikroo‘g‘itlarning ahamiyati, oziqlantirish muddatlari va me‘yorlarining o‘simlikning o‘sishi, rivojlanishi hamda don hosiliga ta‘siri bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari qiyosiy tahlil qilingan. Turli tuproq – iqlim sharoitlarida qo‘llanilgan o‘g‘itlash tartiblarining samaradorligi ilmiy jihatdan baholangan va mavjud ma‘lumotlar umumlashtirilgan.

Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida soya yetishtirishda oziqlantirish tizimini takomillashtirish, ayniqsa mikroo‘g‘itlarni qo‘llashning maqbul muddatlari va me‘yorlarini aniqlash bo‘yicha qo‘shimcha ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligi asoslab berilgan hamda tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqot hududi tabiiy tuproqlari iqlim sharoiti, tadqiqot uslublari**” deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar olib borilgan Qashqadaryo viloyati Kasbi tumanidagi “Saidakbar Saidaxror” fermer xo‘jaligi dala maydonlarining tabiiy – iqlim va agroekologik sharoitlari ilmiy asosda yoritilgan. Tajriba maydonlari tuprog‘ining mexanik tarkibi, unumdorlik darajasi, gumus miqdori hamda o‘simliklar oziqlanishi uchun muhim bo‘lgan asosiy makro va mikroelementlar bo‘yicha mavjud holati tahlil qilingan.

Tuproq sharoitining o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishiga ta‘siri nuqtayi nazaridan dala maydonlarining agrotexnik bahosi berilgan bo‘lib, ushbu hudud soya yetishtirish uchun o‘rtacha qulay sharoitga ega ekanligi qayd etilgan. Tuproqning suv – fizik xossalari va mexanik tarkibi o‘simlikning ildiz tizimi

rivojlanishi hamda oziqa elementlarining o'zlashtirilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy manbalar asosida asoslab berilgan.

Tadqiqot yillarida Qarshi shahar gidrometeorologiya kuzatuv markazi ma'lumotlari asosida havo harorati, atmosfera yog'inlari miqdori va samarali harorat yig'indisi bo'yicha ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Olingan natijalar 2022–2024–yillar iqlim sharoitlarini ko'p yillik o'rtacha ko'rsatkichlar bilan qiyosiy tahlil qilish orqali baholangan. Tahlil natijalariga ko'ra, ayrim yillarda atmosfera yog'inlari miqdorining kamayishi va yuqori harorat fonida bug'lanish jarayonlarining kuchayishi o'simlikning suv rejimi va vegetatsiya jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatganligi aniqlangan.

Shuningdek, samarali harorat yig'indisining yuqoriligi o'simlikning fenologik rivojlanish bosqichlarini tezlashtirishi, biroq namlik etishmovchiligi sharoitida hosil shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan. Dala tajribalari O'zPITda qabul qilingan "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" asosida olib borilgan. Tajriba sxemasi takrorlanishlar usulida tashkil etilib, olingan hosildorlik ko'rsatkichlari B.A.Dospexovning dispersion tahlil usuli bo'yicha zamonaviy statistik dasturlar yordamida matematik ishlovdan o'tkazilgan.

Bundan tashqari, tajribalar dissertasiya ishining dasturiga muvofiq amalga oshirilib, barcha agrotexnik tadbirlar–ekish me'yorlari, oziqlantirish tizimi, sug'orish rejimi va parvarishlash ishlari ilmiy asoslangan agrotexnologik talablar asosida bajarilgan.

Dissertasiyaning **"Soyani ildizdan tashqari oziqlantirishning o'sishi, rivojlanishi, dukkaklar shakllanishi va hosildorligiga ta'siri"** deb nomlangan uchinchi bobida soya o'simligini ildizdan tashqari oziqlantirishning uning o'sishi, rivojlanishi, dukkaklar shakllanishi hamda hosildorlik ko'rsatkichlariga ta'siri bo'yicha olib borilgan dala tajribalari natijalari tahlil qilingan.

Jumladan, "Turli oziqlantirish tartiblari va suspenziya qilishning soya navlari rivojlanish davrlariga ta'siri" 3.1 – §. Bo'limida o'tkazilgan dala tajribalarida soya navlarining fenologik rivojlanish bosqichlari (unib chiqish, chin barg hosil bo'lishi, shonalash, gullash, dukkaklash va pishish) turli mineral o'g'it me'yorlari hamda bargdan oziqlantirish (suspenziya) bo'yicha tajriba natijalari tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, soya urug'lari ekilgandan so'ng unib chiqish 27-aprel hamda 5-may kunlari oralig'ida kuzatildi. Chin barg hosil bo'lish fazasi barcha variantlarda deyarli bir xil muddatda (18–19-may) qayd etildi. Keyingi rivojlanish bosqichlarida esa o'g'it me'yorlari va suspenziya turlariga bog'liq holda sezilarli farqlar kuzatildi.

Shonalash fazasi o'g'itsiz variantlarda 27-may–6-iyun, $N_{60}P_{45}K_{30}$ fonida 30-may–7-iyun, $N_{120}P_{90}K_{60}$ fonida esa 1–9-iyun oralig'ida kuzatildi. Bargdan oziqlantirish qo'llangan variantlarda ushbu fazalar nazoratga nisbatan 1–3 kun farq bilan o'zgarganligi qayd etildi. Dukkaklash va gullash fazalarida ham shunga o'xshash qonuniyat saqlanib, o'g'it me'yorlari oshishi hamda suspenziya qo'llanishi fenologik bosqichlarning biroz kechikishiga (taxminan 3–7 kun) sabab bo'ldi. Pishish fazasining boshlanishi variantlarga qarab iyul oxiri–sentyabr oyi boshigacha davom etgan.

To'liq pishish muddatlari bo'yicha "Madad" navi barcha variantlarda "Toshkent" naviga nisbatan 5–7 kun ertaroq etilganligi aniqlandi. Bu holat navning genetik ertapisharlik xususiyati bilan izohlangan.

Mineral o'g'itlar me'yoring oshirilishi va bargdan oziqlantirishning qo'llanishi soya o'simligining fenologik rivojlanish muddatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatib, ayrim fazalarda erta yoki kechikish holatlarini keltirib chiqardi. Shu bilan birga, navlar o'rtasidagi farqlar barqaror bo'lib, "Madad" navi nisbatan ertapishar ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan.

"Turli oziqlantirish tartiblari va suspenziya qilishning soya navlari o'suv davri davomiyligiga ta'siri" 3.2–§.bo'limida Qashqadaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida olib borilgan dala tajribalarida soya navlarining o'suv davri davomiyligi mineral o'g'itlar me'yorlari va bargdan oziqlantirish (suspenziya) turlariga bog'liq holda o'rganildi. Olingan natijalar soya o'simligining vegetatsiya davri agroekologik sharoitlar, oziqa elementi bilan ta'minlanish darajasi hamda nav xususiyatlariga sezilarli darajada bog'liqligini ko'rsatgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, eng qisqa o'suv davri o'g'itsiz va bargdan oziqlantirilmagan (nazorat) variantda "Toshkent" navida 118 kunni, "Madad" navida 112 kunni tashkil etdi. Eng uzun vegetatsiya davri esa mineral o'g'itlar me'yori $N_{120}P_{90}K_{60}$ qo'llanilgan va SAKO preparati bilan bargdan oziqlantirilgan variantda "Toshkent" navida 138 kunni tashkil etganligi aniqlandi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, oziqlantirish fonining yaxshilanishi o'simlikda vegetativ va generativ organlar shakllanishini kuchaytirib, o'suv davrining uzayishiga olib keladi. Biroq bu holat navning genetik ertapisharlik yoki kechpisharlik xususiyatini o'zgartirmaydi. Ya'ni, "Madad" navi barcha oziqlantirish variantlarida "Toshkent" naviga nisbatan barqaror ravishda ertaroq pishib etilgan.

Xulosa qilib aytganda, soya yetishtirishda mineral o'g'itlar me'yorlarini optimallashtirish va bargdan oziqlantirish usullarini qo'llash o'simlikning o'suv davri davomiyligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar vegetatsiya davrini ma'lum darajada uzaytirsa–da, navlarning genetik xususiyatlari asosiy pishish muddatini belgilovchi hal qiluvchi omil bo'lib qoladi.

Soya o'simligini ildizdan va ildizdan tashqari oziqlantirishning dukkaklar shakllanishiga ta'siri 3.2–§.bo'limida olib borilgan dala tajribalari va fenologik kuzatuvlar natijasida Qashqadaryo viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida soyaning "Toshkent" va "Madad" navlarida dukkaklar shakllanishi mineral o'g'itlar me'yori hamda ildizdan tashqari oziqlantirish (suspenziya) turlariga bog'liq holda sezilarli darajada o'zgarishi aniqlangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 1–iyul sanasida eng kam dukkaklar soni nazorat (o'g'itsiz va suspenziyasiz) variantda "Toshkent" navida 6,6 dona, "Madad" navida esa 6,8 donani tashkil etdi.

Eng yuqori ko'rsatkich esa mineral o'g'itlar me'yori $N_{120}P_{90}K_{60}$ qo'llanilgan fonda Kalifos preparati bilan bargdan oziqlantirilgan "Madad" navida 22,8 donani tashkil qildi.

O'rganilgan davrlar kesimida dukkaklar shakllanishi bosqichma–bosqich ortib borganligi qayd etildi. Jumladan, 15–iyulda nazorat variantida 12,0–12,2 dona

dukkak shakllangan bo'lsa, Kalifos qo'llanilgan variantlarda bu ko'rsatkich 20,5–22,4 donaga etdi. 1–avgustda esa dukkaklar soni 53,3–73,8 dona oralig'ida bo'lib, eng yuqori natija yana Kalifos qo'llanilgan variantlarda kuzatildi. 15–avgustga kelib, dukkaklar soni keskin oshib, nazorat variantida 94,0–94,6 dona, yuqori oziqlantirish va Kalifos qo'llanilgan variantlarda esa 172,4–181,9 donaga etganligi aniqlangan.

1 – jadval

Turli me'yorlarda o'g'itlash va suspenziya qilishning soya navlarida dukkaklar shakllanishiga ta'siri

№	O'g'it me'yori	Suspenziya turi	Nav nomi	Dukkaklar soni, dona				
				1 iyul	15 iyul	1 avg	15 avg	
1	Nazorat (o'g'itsiz)	Nazorat	Toshkent	6,6	12,2	53,3	94,6	
2			Madad	6,8	12,0	53,9	94,0	
3		Karbamid	Toshkent	9,2	18,0	64,2	108,8	
4			Madad	10,0	16,0	66,0	109,5	
5		Kalifos	Toshkent	14,3	20,5	68,4	116,2	
6			Madad	16,2	22,4	72,2	118,4	
7		SAKO'	Toshkent	14,0	17,7	66,0	113,5	
8			Madad	14,8	19,5	73,8	114,2	
9	N ₆₀ P ₄₅ K ₃₀	Nazorat	Toshkent	15,0	43,8	93,2	131,4	
10			Madad	15,1	44,8	95,3	133,7	
11		Karbamid	Toshkent	15,2	58,9	105,6	140,9	
12			Madad	15,2	64,2	112,6	152,6	
13		Kalifos	Toshkent	19,6	64,5	123,5	161,8	
14			Madad	19,1	63,0	125,5	172,4	
15		SAKO'	Toshkent	20,0	60,2	115,6	162,8	
16			Madad	19,9	61,3	116,0	164,1	
17		N ₁₂₀ P ₉₀ K ₆₀	Nazorat	Toshkent	16,9	52,8	97,8	140,9
18				Madad	17,5	50,8	98,1	141,2
19			Karbamid	Toshkent	19,4	61,7	117,1	164,6
20				Madad	19,6	61,4	117,6	166,0
21			Kalifos	Toshkent	20,6	62,8	132,6	177,9
22				Madad	22,8	69,0	143,0	181,9
23			SAKO'	Toshkent	19,1	59,0	127,3	172,2
24				Madad	20,3	63,5	130,6	171,1

Izoh: Birinchi marta suspenziya orqali ildizdan tashqari oziqlantirish dukkaklash fazasining boshlanishida karbamid o'g'iti bilan 6 kg/ga, kalifos o'g'iti bilan 1,5 l/ga va SAKO' o'g'iti bilan 1,5 kg/ga me'yorda, dastlabki dukkaklarning pishishi boshlanishida karbamid o'g'iti bilan 10 kg/ga, kalifos o'g'iti bilan 2,5 l/ga va SAKO' o'g'iti bilan 2,5 kg/ga me'yorda oziqlantirildi

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, mineral o'g'itlar me'yori oshishi va ildizdan tashqari oziqlantirish qo'llanilishi dukkaklar shakllanishini sezilarli darajada kuchaytiradi. Xususan, N₆₀P₄₅K₃₀ fonida Kalifos qo'llanilganda dukkaklar soni

nazoratga nisbatan 21,6–54,0 donaga, $N_{120}P_{90}K_{60}$ fonida esa 37,0–89,1 donagacha yuqori bo‘ldi.

Shuningdek, navlar kesimida “Madad” navi “Toshkent” naviga nisbatan dukkaklar shakllanishi bo‘yicha 0,5–8,0 dona yuqori natija ko‘rsatganligi qayd etildi, bu esa navning biopotensial faolligi bilan izohlanadi.

Soya navlarini turli usullarda oziqlantirishning o‘simlik bo‘yi shakllanishiga ta’siri 3.4–§.bo‘limida soyaning “Toshkent” va “Madad” navlarida o‘simlik bo‘yining shakllanishi qo‘llanilgan mineral o‘g‘it me‘yori hamda bargdan tashqari oziqlantirish usullariga bevosita bog‘liqligi aniqlangan. Fenologik kuzatuvlar davomida barcha variantlarda o‘simlik bo‘yining o‘shish dinamikasi bosqichma–bosqich ortib borgan bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar qo‘llanilgan agrotexnik tadbirlar samaradorligini yaqqol ifodalaydi.

Tajribaning boshlang‘ich bosqichida (1 iyun) eng past o‘simlik bo‘yi nazorat variantida, ya’ni mineral o‘g‘it va bargdan oziqlantirish qo‘llanilmagan sharoitda qayd etildi. Ushbu variantda “Madad” navida o‘simlik bo‘yi 9,5–11,0 sm ni tashkil qilgan bo‘lsa, “Toshkent” navida 11,0–17,2 sm oralig‘ida bo‘lgan. Eng yuqori ko‘rsatkich esa $N_{120}P_{90}K_{60}$ mineral o‘g‘it me‘yori qo‘llanilgan va SAKO‘ preparati bilan bargdan oziqlantirilgan variantlarda kuzatilib, “Toshkent” navida 43,1 sm, “Madad” navida 43,6 sm ga etganligi qayd etildi. 15-iyun holatiga kelib o‘simlik bo‘yining sezilarli darajada ortishi kuzatildi. Nazorat variantida ko‘rsatkichlar 24,9–27,9 sm atrofida bo‘lgan bo‘lsa, mineral o‘g‘it fonida va bargdan oziqlantirish qo‘llanilganda bu ko‘rsatkich 43,7–70,7 sm gacha oshgan. Eng yuqori natija yana SAKO‘ preparati qo‘llanilgan variantda qayd etildi. 1-iyul bosqichida o‘simlik bo‘yi yanada barqaror o‘shish tendensiyasini ko‘rsatdi. Nazorat variantida 37,2–37,4 sm bo‘lgan ko‘rsatkich, $N_{60}P_{45}K_{30}$ fonida 48,3–62,8 sm gacha, $N_{120}P_{90}K_{60}$ fonida esa 52,0–87,2 sm gacha etganligi aniqlandi. Bu davrda bargdan oziqlantirishning ta’siri yanada yaqqol namoyon bo‘lib, SAKO‘ preparati qo‘llanilgan variantlar eng yuqori natijalarni ko‘rsatdi. 15-iyul bosqichida o‘simlik bo‘yi maksimal darajaga yaqinlashgan bo‘lib, nazorat variantida 47,2–49,7 sm, $N_{60}P_{45}K_{30}$ fonida 71,9–81,0 sm, $N_{120}P_{90}K_{60}$ fonida esa 81,5–98,7 sm oralig‘ida bo‘lganligi qayd etildi. Ushbu bosqichda ham SAKO‘ preparati qo‘llanilgan variantlar ustunlik qilgan.


Vegetatsiya davrining yakuniy bosqichida (1-avgust) eng past ko‘rsatkich nazorat variantida 56,4–61,0 sm ni tashkil etgan bo‘lsa, eng yuqori natija $N_{120}P_{90}K_{60}$ mineral o‘g‘it me‘yori va SAKO‘ preparati qo‘llanilgan variantda qayd etilib, “Toshkent” navida 103,1 sm, “Madad” navida esa 100,1 sm ga etgan.

Soya navlarida o‘simlik bo‘yining shakllanishiga mineral o‘g‘it me‘yori hamda bargdan tashqari oziqlantirish usullari kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Karbamid va Kalfos preparatlari ham ijobiy natija bergan bo‘lsa–da, eng yuqori samaradorlik SAKO‘ preparati qo‘llanilgan variantlarda qayd etildi. Ushbu variantlarda o‘simlik bo‘yi nazoratga nisbatan o‘rtacha 25–45 sm ga yuqori bo‘lganligi aniqlanib, bu agrotexnik tadbirning samaradorligini tasdiqlaydi.

Navlar kesimida tahlil qilinganda, “Toshkent” navi umumiy o‘shish ko‘rsatkichlari bo‘yicha biroz ustunlikka ega bo‘lsa, “Madad” navi bargdan

oziqlantirishga sezgirligi bilan ajralib turdi. Navlar o'rtasidagi farq vegetatsiya davri davomida 1,5 – 5,0 sm oralig'ida o'zgarib bordi.

Tadqiqot natijalari soya navlarida o'simlik bo'yi shakllanishi mineral o'g'it me'yorini va bargdan tashqari oziqlantirish usullariga bevosita bog'liqligini tasdiqladi. Eng optimal agrotexnik variant sifatida $N_{120}P_{90}K_{60}$ mineral o'g'it me'yorini bilan birgalikda SAKO' preparatini qo'llash tavsiya etilgan.



1 – rasm. Soya navlari dukkaklari soni (2022 – 2024 yy.)

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, soya o'simligida dukkaklar shakllanishi mineral o'g'itlar me'yorini va ildizdan tashqari oziqlantirish turlariga bevosita bog'liq bo'lib, $N_{120}P_{90}K_{60}$ fonida Kalifos preparati eng yuqori samaradorlikni ko'rsatdi. Ushbu variantlarda dukkaklar soni nazoratga nisbatan sezilarli darajada (89,1 donagacha) oshganligi aniqlandi. Shu bilan birga, "Madad" navi "Toshkent" naviga nisbatan yuqori biologik mahsuldorlikka ega ekanligi tasdiqlandi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, mineral o'g'it qo'llanilmagan (nazorat) variantlarda yon shoxlar soni eng past ko'rsatkichni tashkil etdi. Ushbu sharoitda "Toshkent" navida o'rtacha 2,1 dona, "Madad" navida esa 2,3 dona yon shox shakllangan. Shu bilan birga, bargdan tashqari oziqlantirish qo'llanilganda yon shoxlar sonining ortishi kuzatildi. Jumladan, karbamid qo'llanilganda 2,7–3,2 dona, kaliy–fosfor (Kalifos) preparati qo'llanilganda 3,5–3,8 dona, SAKO' preparati qo'llanilganda esa 3,3–3,5 dona atrofida yon shoxlar shakllangan.

Mineral o'g'it me'yorini $N_{60}P_{45}K_{30}$ qo'llanilgan fonida yon shoxlar soni sezilarli darajada oshdi. Ushbu variantda "Toshkent" navida 3,5–4,7 dona, "Madad" navida esa 3,7 – 5,0 dona yon shoxlar shakllanganligi qayd etildi. Bu bosqichda ayniqsa karbamid va Kalifos preparatlari yuqori natija ko'rsatdi.

Eng yuqori ko'rsatkichlar mineral o'g'it me'yori $N_{120}P_{90}K_{60}$ qo'llanilgan sharoitda kuzatildi. Ushbu agrofon yon shoxlar shakllanishi uchun eng qulay sharoit yaratgan bo'lib, "Toshkent" navida 3,7–4,9 dona, "Madad" navida esa 4,0 – 5,0 dona yon shoxlar shakllangan. Bu bosqichda SAKO' preparati ham yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlangan.

Yillar kesimida tahlil qilinganda (2022–2024 yy.) yon shoxlar sonida barqaror o'sish dinamikasi kuzatildi. 2022–yilda ko'rsatkichlar nisbatan past bo'lgan bo'lsa, 2024–yilda barcha variantlarda oshish tendensiyasi qayd etildi. Bu esa iqlim sharoitlari va agrotexnik tadbirlarning uyg'unlashuvi natijasida o'simlikning rivojlanish darajasi yaxshilanganini ko'rsatadi.

Navlar kesimida tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, "Madad" navi yon shoxlar hosil bo'lishi bo'yicha "Toshkent" naviga nisbatan biroz yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ldi. Bu farq o'rtacha 0,2–0,5 dona oralig'ida bo'lib, navning biologik xususiyatlari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, soya navlarida yon shoxlar shakllanishi oziqlantirish tizimiga bevosita bog'liq bo'lib, mineral o'g'it me'yorining oshirilishi hamda bargdan tashqari oziqlantirish qo'llanilishi yon shoxlar sonining ortishiga olib keladi. Eng samarali variant sifatida $N_{120}P_{90}K_{60}$ mineral o'g'it fonida SAKO' va Kalifos preparatlari qo'llanilgan holatlar qayd etildi.

"Soyaning turli usullarda oziqlantirilishi fotosintetik sof mahsuldorligiga ta'siri" 3.6–§.bo'limida soya navlarining fotosintetik sof mahsuldorligi (FSM) mineral o'g'itlash me'yorlari va bargdan tashqari suspenziya bilan oziqlantirish sharoitida sezilarli darajada o'zgarishi bayon qilingan.

Tadqiqot natijalarida mineral o'g'it va suspenziya qo'llanilmagan nazorat variantida FSM eng past ko'rsatkichga ega bo'lib, "Toshkent" navida 20,2–21,5 g/m² sutka, "Madad" navida 18,9–20,4 g/m² sutkani tashkil etdi.

Mineral o'g'it me'yori $N_{60}P_{45}K_{30}$ qo'llanilgan fonda va bargdan tashqari oziqlantirishsiz variantda FSM biroz yuqoriroq bo'lib, "Toshkent" navida 21,5 – 22,8 g/m² sutka, "Madad" navida 20,1 – 21,4 g/m² sutka qayd etildi.

